



**MAVZU: HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI ASOSIDA
YOSHLARNI HUQUQIY TARBIYALASHDA PROKURATURANING
O‘RNI**

Urakov Djaxongir Rajabovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ORCID: [0000-0003-0078-2463](https://orcid.org/0000-0003-0078-2463)

udjahongir@gmail.com

Shomurodova Nodira G'afur qizi,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, yuridik fakulteti 4-bosqich

talabasi

shomurodovanodira11111@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi tushunchasi, uni amalga oshiruvchi organlar, bu borada prokuraturaning oʻrni, yoshlarni huquqiy tarbiyalashda prokuratura organlari amalga oshiradigan vazifalar, bu sohadagi muammolar va ularni hal qilishga yordam beradigan bir qator taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit soʻzlar: Huquqbuzarliklar profilaktikasi, prinsiplari, turlari, yoshlar taʼlim-tarbiyasi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy targʻibot, profilaktik tadbirlar, taʼlim muassasalari bilan hamkorlik.

Bu masalani aniqlashtirishdan oldin huquqbuzarliklar profilaktikasi tushunchasini ochib berish lozim deb hisoblayman. OʻRQ-371-SON 14.05.2014. Huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida qabul qilingan Qonunga koʻra Huquqbuzarliklar profilaktikasi deganda, huquq-targʻibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qoʻllaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi tushuniladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini taʼminlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash, shuningdek korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, oʻrganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini koʻrish;

huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil boʻlgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;

jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish;



huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining oʻzaro hamkorligini taʼminlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

- ichki ishlar organlari;
- prokuratura organlari;
- Davlat xavfsizlik xizmati organlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- adliya organlari;
- davlat bojxona xizmati organlari;
- davlat soliq xizmati organlari;
- mehnat organlari;
- taʼlimni davlat tomonidan boshqarish organlari va taʼlim muassasalari;
- davlat sogʻliqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sogʻliqni saqlash muassasalari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi organlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy boʻlinmalari.

Bu organlarning deyarli barchasining vakolatiga kiradigan masala yoshlar huquqbuzarliklarining oldini olish hisoblanadi. Bu ayni vaqtlarda eng dolzarb mavzulardan biri deb oʻylayman. Yoshlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish birlamchi chora-tadbirlardan deyishimiz mumkin.

Voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi oʻzaro voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa gʻayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi;

Bu borada prokuraturaning oʻrniga keladigan boʻlsak, prokuratura huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlardan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prokuratura organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi qonunlarining aniq va bir xil ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini, shu jumladan soliq, valyutaga oid huquqbuzarliklar, jinoyat faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirish profilaktikasini amalga oshiradi, shu



jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi; aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibot bo'yicha faoliyatda ishtirok etadi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

Prokuratura organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Prokuratura organlarining vakolatlari doirasida oladigan bo'lsak, jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibot bo'yicha faoliyati muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa yoshlarning huquqiy bilimini oshirishdagi ishtiroki benihoya deyish mumkin.

Prokuratura qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va huquqiy tarbiyani kuchaytirishga mas'ul organlardan biri hisoblanadi. Yoshlar orasida huquqiy tarbiyani shakllantirishda prokuratura quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Huquqbuzarliklarning oldini olish

Jinoyatchilikka moyil yoshlar bilan ishlash.

Jamiyatda huquqiy ongini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

2. Huquqiy targ'ibot ishlarini tashkil qilish

Maktab va oliy o'quv yurtlarida huquqiy ta'lim va tarbiyani kuchaytirish.

Ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali huquqiy ongini oshirish.

Yoshlarning qonunchilik va huquqiy normalarni tushunishlari uchun seminarlar va uchrashuvlar tashkil qilish.

3. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va yoshlar huquqlarini himoya qilish

Norasmiy tuzilmalar va uyushgan jinoyatchilik ta'siriga tushib qolgan yoshlar bilan ishlash.

Yoshlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularga huquqiy yordam berish.

4. Jamoatchilik va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik

Huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish.

Ota-onalar, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar o'tkazish.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan vazifalar ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish to'g'risida 18.05.2020-yildagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi kengashining qarori yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish borasida tashlangan qadamlardan biri deyishimiz mumkin.



Soʻnggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari mustahkamlanib, yoshlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. 2016-yil 14-sentyabrda Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida Qonun qabul qilingan.

Yoshlarga oid davlat siyosatini roʻyobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

taʼlimni davlat tomonidan boshqarish organlari va taʼlim muassasalari;

davlat sogʻliqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sogʻliqni saqlash muassasalari;

jismoniy tarbiya va sport boʻyicha organlar;

madaniyat organlari;

mehnat organlari;

prokuratura organlari;

ichki ishlar organlari;

adliya organlari;

mudofaa ishlari boʻyicha organlar.

Yoshlarga oid davlat siyosatini roʻyobga chiqarishda boshqa organlar va muassasalar ham qonunchilikka muvofiq ishtirok etishi mumkin

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular oʻrtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, yosh oilalar mustahkamligini taʼminlash, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Jumladan, yoshlarni madaniyat, sanʼat va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan toʻgʻri foydalanish koʻnikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini taʼminlash boʻyicha kechiktirib boʻlmaydigan vazifalarni oʻz ichiga olgan besh muhim tashabbus amalga oshirilmoqda.

"Huquqiy tarbiya" va "huquqbuzarliklarning oldini olish" tushunchalari bir xil yoki oʻzaro almashtiriladigan emas, ular kompleks tarzda amalga oshiriladi. Huquqbuzarliklarning oldini olish avvalo, huquqbuzarliklarning sodir boʻlishining sabablari va sharoitlarini aniqlash va bartaraf etishda namoyon boʻladi.

Oʻquvchi yoshlarni huquqiy tarbiyasining asosi, yaʼni rejalashtirilgan, tizimli va tashkil etilgan tarbiya faoliyatining predmeti boʻlgan huquqiy ongni shakllantirish va huquqiy madaniyat darajasini oshirishda quyidagi elementlar mavjud: huquqiy ongni shakllantirish, huquqiy madaniyatni oshirish va huquqiy xulq-atvor; huquqiy qadriyatlar haqida ijobiy munosabatni shakllantirish; ijtimoiy-huquqiy faollikka intilish; qonunlarga boʻysunadigan fuqaroni tarbiyalash, faollikni va faqat oʻz huquqlarini emas, balki burchlarini ham biladigan toʻliq shaxsni tarbiyalash.

Huquqiy tarbiyaning asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat: huquqiy oʻqitish, huquqiy targʻibot va shaxsiy huquqiy sotsializatsiyani pedagogik qoʻllab-quvvatlash.

Huquqiy oʻqitish, yoshlar orasida davlat va huquq, qonuniy siyosat, qonun ustuvorligi va huquqiy tartib, huquqiy madaniyat mohiyati, jinoyat sodir etish sharoitlari, shaxsiy kriminologik xavfsizlik haqida bilimlar tizimini shakllantirishni anglatadi. Shuningdek, yangi qonun hujjatlari mazmunini oʻquvchilarga yetkazish kabi faoliyatlarni oʻz ichiga oladi.



Huquqiy targ'ibot esa huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorga ta'sir ko'rsatish, dolzarb huquqiy ma'lumotlarni faol tarqatish orqali amalga oshiriladi. Bu huquqiy o'qitishdan farqli ravishda, bunda pedagoglar va o'quvchilar, odatda, uzoq vaqt davomida o'zaro huquqiy tarbiya jarayonida muloqotda bo'ladilar. Bu o'z ichiga turli huquq sohalariga oid dasturlarni, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni, huquqiy o'qitishning maxsus vositalarini o'z ichiga oladi.

Shaxsiy huquqiy sotsializatsiyani pedagogik qo'llab-quvvatlash esa, ayrim talabalar huquqiy madaniyati va huquqiy tarbiyasidagi o'zgarishlarni kuzatish, ular duch kelayotgan qiyinchiliklarni aniqlash va sabablarini o'rganish, shuningdek, ularga huquqiy yordam ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Huquqiy tarbiya tadbirlari doirasida umumiy, maxsus va shaxsiy huquqbuzarliklarning oldini olish metodlari qo'llanilishi lozim.

Umumiy huquqiy tarbiyaviy tadbirlarga yuqori darajada o'rgatilgan va huquqning asosiy sohalarini qamrab olgan huquqiy nazariyani o'rganish kiradi. Madaniy va vatanparvarlikni rivojlantirish, fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarni o'zlashtirish maqsadida huquqiy fanlar barcha oliy o'quv yurtlarida o'rganilishi majburiy bo'lishi kerak. Yoshlar o'zlarining jamiyatdagi va davlatdagi roli va o'rnini bilishlari lozim, shuningdek, o'z manfaatlari bilan birga boshqa fuqarolarning manfaatlarini ham inobatga olishlari zarur. Huquqiy bilimlarni olish, kelajakda malakali mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi, ular huquqiy hujjatlar orasidan o'z professionallariga tegishli bo'lganlarini tanlab, huquqlar buzilgan taqdirda o'zlarini himoya qila olishadi.

Bu faoliyatni amlga oshirish bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud;

1. Yoshlarning huquqiy savodxonligi pastligi o'ko'p hollarda yoshlar qonun va o'z huquqlarini yaxshi bilmaydi, bu esa huquqbuzarliklarga sabab bo'lishi mumkin.

2. Targ'ibot ishlarining yetarlicha samarali emasligi o'ayrim hollarda huquqiy tarbiya ishlari jonli va ta'sirchan emas, natijada yoshlar bu ma'lumotlarni qiziqarsiz deb qabul qilishadi.

3. Oila va jamiyat ta'sirining kamligi o'ayrim yoshlar o'z muhitida qonuniylikka bo'lgan hurmatni shakllantira olmaydi, bu esa ularning huquqbuzarlikka moyilligiga olib keladi.

4. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari ta'siri o'ba'zan yoshlar huquqbuzarlikni targ'ib etuvchi axborotlarga uchrab, noto'g'ri xulosalarga kelishi mumkin.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun, huquqiy ta'limni kuchaytirish o'maktab va universitetlarda huquqiy fanlar va targ'ibot tadbirlarini kengaytirish, amaliyotga asoslangan mashg'ulotlar o'tkazish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish o'huquqiy savodxonlikni oshirish uchun zamonaviy usullardan foydalanib, yoshlarga tushunarli tarzda huquqiy axborotni yetkazish, ota-onalar va jamoatchilik ishtirokini oshirish o'oilada huquqiy tarbiyani kuchaytirish, mahallalarda huquqiy targ'ibot ishlarini o'tkazish, jnoyatchilikka moyil yoshlar bilan ishlash o'prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tavakkal guruhdagi yoshlar bilan maxsus dasturlar asosida tarbiyaviy ishlar olib borilsa bu borada amalga oshirilayotgan ishlar o'z samarasini berishi mumkin.



Xulosa qilib aytganda, yoshlar orasida huquqiy tarbiyani kuchaytirish jinoyatchilikni kamaytirishning asosiy omillaridan biridir. Prokuratura bu jarayonda muhim o'rin tutib, huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqiy targ'ibot ishlarini tashkil etish va yoshlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda faol ishtirok etadi. Shu bois, davlat organlari, ta'lim muassasalari va jamoatchilik bilan hamkorlikda ish olib borish orqali yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishga e'tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Зорченко Е. А., Полящук Н. А., Юрашевич Н. М. Правосознание и правовая культура // Теория государства и права : пособие ; под общ. ред. Н. М. Юрашевич. 2-е изд., испр. и доп. – Минск : Акад. упр. при Президенте Респ. Беларусь, 2013. – С. 290–301.
- 2.O'RQ-371-SON 14.05.2014. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida
- 3.Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгашининг қарори (18.05.2020 й., 274-IV-сон):
4. "Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни (14.09.2016 й., ЎПҚ-406-сон)
5. 5.TDYU O.M. MADALIYEV PROKUROR NAZORATI Darslik MAXSUS QISM Toshkent - «ILM ZIYO» — 2012
6. TDYU A. MAXMUDOV, J. BOKIYEV "PROKURATURA FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI" O'quv qo'llanma Toshkent – 2023
- 7.2001-yil 29-avgustdagi yangi tahrirda qabul qilingan Prokuratura to'g'risida gi qonun <https://www.lex.uz>
- 8.Prokuror Nazorati- Umumiy qism O.M.Madaliyev Toshkent- ILM ZIYO- 2012 61, 63-betlar
- 9.Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: Ozbekiston 2019
- 10.PF-5438-son 08.05.2018 <https://www.lex.uz> .